siyatni yakuniy holat emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida talqin etib, **shaxsiyat – doimiy oqim** modelini hosil qiladi. *"The view you adopt for yourself profoundly affects the way you lead your life"* [10; 6 p.] jumlasi **tafakkur qolipi – hayotning arxitektori** metaforasini ifodalaydi. *"The passion for stretching yourself and sticking to it, even (or especially) when it's not going well, is the hallmark of the growth mindset"* [10;7 p.] fikri esa **rivojlanish – qiyinchiliklarni yengish jarayoni** konseptual modelini yuzaga keltiradi. Ushbu diskurs epistemik va deontik modalliklarning uyg'unligi bilan xarakterlanadi.

**Illokutiv taqsimot.** To'rt mualliflik korpusining qiyosiy tahlili persuaziv strategiyalarning o'ziga xos taqsimotini ko'rsatadi. Kovey korpusida direktiv nutq aktlari 68%ni tashkil etadi. Klir korpusida direktiv-strategik aktlar 52%, komissiv aktlar esa 22% ulushga ega. Braun diskursida ekspressiv aktlar 40%, vakil-refleksiv aktlar 38%ni tashkil qiladi. Dvek korpusida vakil-tushuntirish aktlari 56%, direktiv aktlar esa 24%ga teng. Mazkur ko'rsatkichlar to'rtta persuaziv paradigmaning bir-birini to'ldiruvchi tabiatga ega ekanini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Tadqiqotda zamonaviy ingliz motivatsion diskursining to'rt mualliflik korpusi lingvopragmatik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada **tamoyilga asoslangan** (Kovey), **tizimga asoslangan** (Klir), **zaiflikka asoslangan** (Braun) hamda **tafakkurga asoslangan** (Dvek) to'rtta persuaziv paradigma ajratildi. Har bir paradigma o'ziga xos illokutiv profil, modallik dominanti va konseptual metaforalar tizimiga ega bo'lib, ularning integratsiyasi zamonaviy ingliz motivatsion diskursining yaxlit lingvopragmatik portretini shakllantiradi. Shu bois mazkur qiyosiy model motivatsion diskursni keyingi tadqiq etish uchun **barqaror *tertium comparationis*** vazifasini bajarishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 1980, 256 p.

(2). Searle J.R. A Classification of Illocutionary Acts // Language in Society. 1976, Vol. 5, № 1, p. 1–23.

(3). Palmer F.R. Mood and Modality. 2nd ed. Cambridge, Cambridge University Press, 2001, 236 p.

(4). Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. Cambridge, Cambridge University Press, 2000, 224 p.

(5). Charteris-Black J. Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011, 264 p.

(6). Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 320 b.

(7). Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People. 25th Anniversary Edition. New York: Rosetta Books, 2013, 432 p.

(8). Clear J. Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones. New York, Avery, 2018, 320 p.

(9). Brown B. Daring Greatly: How the Courage to Be Vulnerable Transforms the Way We Live, Love, Parent, and Lead. New York, Avery, 2012, 320 p.

(10). Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. New York, Ballantine Books, 2007, 288 p.



**Atadjanova Marxabo Ilxamovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi; E-mail: marxabo@urdu.uz; https://orcid.org/0009-0003-5513-4655)**


## GRADUONIMIK QATORLARNING TILDA IFODALANISHI VA ULARNING QIYOSIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI


***Annotatsiya****. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi graduonimik qatorlarning semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda vaqt, chastotalik, intensivlik va siklik munosabatlarni ifodalovchi graduonimik birliklarning strukturaviy hamda funksional xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'zbek tilidagi uch a'zoli va ingliz tilidagi ko'p a'zoli graduonimik qatorlarning umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanib, ularning tilning kognitiv va lingvomadaniy tizimidagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari graduonimiya hodisasining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash hamda qiyosiy tilshunoslik doirasidagi nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.*



***Kalit so'zlar****: graduonimiya, graduonimik qator, semantik darajalanish, payt ravishlari, siklik graduonimiya, chastotalik, intensivlik, qiyosiy-semantik tahlil, o'zbek tili, ingliz tili.*


## ВЫРАЖЕНИЕ ГРАДУОНИМИЧЕСКИХ РЯДОВ В ЯЗЫКЕ И ИХ СОПОСТАВИТЕЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ


***Аннотация.*** *В данной статье проводится сопоставительно-семантический анализ градуонимических рядов в узбекском и английском языках. Рассматриваются структурные и функциональные особенности языковых единиц, выражающих временные, частотные, интенсивные и цик-*

*лические отношения. Особое внимание уделяется выявлению общих и специфических особенностей трёхчленных градуонимических рядов узбекского языка и многочленных рядов английского языка, а также определению их роли в когнитивной и лингвокультурной системе языка. Результаты исследования способствуют выявлению универсальных и национально-специфических характеристик градуонимии и расширяют теоретические представления в области сопоставительного языкознания и лексической семантики.*

***Ключевые слова:*** *градуонимия, градуонимический ряд, семантическая градация, наречия времени, циклическая градуонимия, частотность, интенсивность, сопоставительно-семантический анализ, узбекский язык, английский язык.*

## THE EXPRESSION OF GRADUONYMIC SERIES IN LANGUAGE AND THEIR COMPARATIVE-SEMANTIC CHARACTERISTICS

***Annotation.*** *This article presents a comparative-semantic analysis of graduonymic series in the Uzbek and English languages. The study examines the structural and functional features of graduonymic units expressing temporal, frequency, intensity, and cyclic relations. Particular attention is paid to the similarities and differences between three-member graduonymic series in Uzbek and multi-member series in English, highlighting their role in the cognitive and linguocultural systems of language. The findings contribute to identifying both universal and language-specific characteristics of graduonymy and expand theoretical perspectives within comparative linguistics and lexical semantics.*

***Keywords****: graduonymy, graduonymic series, semantic gradation, adverbs of time, cyclic graduonymy, frequency, intensity, comparative-semantic analysis, Uzbek language, English language.*

**Kirish.** Bugungi kunda til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni kognitiv va lingvomadaniy jihatdan o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, graduonimiya hodisasi til birliklarining ma'no jihatidan darajalanishi, ularning miqdoriy, sifat, vaqt va intensivlik belgilarining bosqichma-bosqich o‘zgarishini tadqiq etuvchi muhim semantik kategoriya sifatida e'tirof etiladi. Graduonimik munosabatlar tilning nafaqat leksik-semantik tizimini, balki xalqning olam haqidagi konseptual tasavvurlarini ham aks ettiradi [1]. Shu jihatdan, turli tillarda vaqt, makon, miqdor va harakatning darajalanishini ifodalovchi birliklarni qiyosiy o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida graduonimiya masalalari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, mazkur hodisaning strukturaviy va semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, J.Sh.Djumaboyeva tomonidan ishlab chiqilgan siklik graduonimiya nazariyasi vaqt va makon tushunchalarining davriy ketma-ketlik asosida ifodalanishini yoritishi bilan ahamiyatlidir [2]. M.O‘rinboyeva va Sh.Xo‘jamqulovning folklor tilidagi payt ravishlari tizimiga oid qarashlari hamda N.Norkuziyevaning payt ravishlarining semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning nazariy asoslarini boyitgan [6;7-b.]. D.Sayidazimovaning ingliz tilidagi chastotalik ma’nosining nolga intiluvchi graduonimik qatorlariga doir tadqiqotlari esa mazkur hodisaning qiyosiy tilshunoslikdagi ahamiyatini namoyon etadi [8].

Graduonimik qatorlar turli tillarda bir xil semantik mazmunni turlicha strukturaviy vositalar orqali ifodalashi bilan ham xarakterlanadi. Jumladan, o‘zbek tilidagi vaqt ma'nosini ifodalovchi uch a'zoli graduonimik qatorlar ingliz tilida ko‘proq a’zolarga ega bo‘lishi yoki aksincha, ayrim semantik munosabatlarning bitta tilga xos holda ifodalanishi tillarning milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir [4]. Mazkur holat graduonimiya hodisasini qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi graduonimik qatorlarning semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish, ularning vaqt, chastotalik, intensivlik va siklik munosabatlarni ifodalashdagi o‘rnini aniqlash hamda graduonimiya hodisasining nazariy asoslarini yoritishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Graduonimiya til birliklari o‘rtasidagi ma'no darajalanishining muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida jahon tilshunosligida semantik maydon va leksik munosabatlar nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. J.Lyons til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni tavsiflashda ma'no darajalanishi hodisasiga alohida e'tibor qaratgan bo‘lsa, D.A.Cruse leksik semantika doirasida graduallikning konseptual xususiyatlarini yoritib bergan [3;4-b.].

O‘zbek tilshunosligida esa O.Bozorov tomonidan darajalanish hodisasining nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik, J.Djumaboyeva tomonidan o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik hamda stilistik graduonimiya masalalari tizimli ravishda tadqiq etildi [1;2-b.]. Tadqiqotchining ilmiy qarashlarida graduonimiyaning chiziqli va siklik ko‘rinishlari farqlanib, vaqt va makon kategoriyalarining semantik darajalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, semantik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali graduonimik qatorlarni tashkil etuvchi til birliklarining semantik xususiyatlari yoritildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida o‘zbek va ingliz tillaridagi vaqt, chastotalik hamda intensivlik ma'nolarini ifodalovchi graduonimik qatorlarning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, kontekstual tahlil usulidan foydalanilib, graduonimik birliklarning nutqdagi funksional imkoniyatlari ham o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida graduonimiya nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar hamda o‘zbek va ingliz tillaridagi payt ravishlari, chastotalik va intensivlik ma'nolarini ifodalovchi til birliklari tanlab olindi.

**Tahlil va natijalar.** Til birliklari o‘rtasidagi ma'no darajalanishi hodisasi graduonimiya nazariyasining muhim tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. Graduonimik qatorlar ma’no, miqdor, vaqt, intensivlik va yo‘nalish kabi semantik belgilarning bosqichma-bosqich o‘zgarishini ifodalab, tilning milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarini namoyon etadi [1;3-b.]. J.Djumaboyeva tomonidan ishlab chiqilgan siklik graduonimiya nazariyasida ma’no darajalanishining aylanishsimon tabiati alohida e’tirof etiladi. Xususan, bomdod→peshin→asr→shom→xufton qatori vaqtning tabiiy almashinuvi asosida shakllangan bo‘lib, sutkalik vaqtning ketma-ket va davriy rivojlanishini aks ettiradi. Mazkur qatorning har bir a’zosi o‘zidan keyingi birlik bilan semantik va vaqt jihatdan uzviy bog‘langanligi sababli u siklik graduonimiyaning yorqin namunasi sifatida baholanadi [2]. Shuningdek, east→south→west→north (sharq→janub→g‘arb→ shimol) yo‘nalishlar qatori ham ma’lum ma’noda siklik munosabatni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bunday qatorlarda semantik belgining rivojlanishi chiziqli emas, balki davriy xarakter kasb etadi.

Folklor matnlari tilida ham graduonimik munosabatlarning o‘ziga xos namunalari kuzatiladi. O‘rinboyeva va Xo‘jamqulov tomonidan folklor tilidagi payt ravishlari qatori hozir→yangi→boyagi→ bog‘onag‘i shaklida tahlil qilinib, unda vaqtning so‘zlovchi nutq momentidan uzoqlashib borishi semantik jihatdan ifodalanishi ko‘rsatib berilgan [7]. Payt ravishlarining graduonimik xususiyatlari Norkuziyeva tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi endi, hozircha, so‘ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon hamda dastlab kabi payt ravishlarining semantik imkoniyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qiladi. Ushbu birliklar nutqda vaqtning davomiyligi, takroriyligi hamda chegaralangan yoki chegaralanmaganligini ifodalashi bilan xarakterlanadi [6].

Ingliz tilida ham graduonimik qatorlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud. Sayidazimova tomonidan chastotalik ma'nosining nolga intilishini ifodalovchi hardly→barely→never qatori tadqiq etilgan. Mazkur birliklarda harakat yoki hodisaning sodir bo‘lish ehtimoli va chastotasi bosqichma-bosqich kamayib boradi. Xususan, hardly birliklari "deyarli sodir bo‘lmaslik", barely "zo‘rg‘a sodir bo‘lish", never esa "mutlaqo sodir bo‘lmaslik" ma’nolarini ifodalab, nol nuqtasiga yaqinlashuvchi graduonimik qatorni hosil qiladi [8].

Graduonimiya hodisasi intensivlikning oshib borishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. J.Djumaboyeva monografiyasida keltirilgan "Men sizni bir necha kunlab kutgandim" misoli haftalab→oylab→yillab shaklida davom ettirilganda kutish harakatining davomiyligi va intensivligi bosqichma-bosqich ortib borishi kuzatiladi [2]. Bunday qatorlarda semantik belgi miqdor va vaqt jihatidan kuchayib boradi hamda tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Turli tillardagi graduonimik qatorlarni qiyoslash natijasida ularning strukturaviy farqlari ham kuzatiladi. Jumladan, o‘zbek tilidagi hali→hozir→keyin uch a'zoli qatori ingliz tilidagi still/yet→already→ now →then→afterwards besh a'zoli qatoriga semantik jihatdan mos keladi. Ingliz tilida vaqt ma'nosining yanada nozik semantik bo‘linishlari ifodalangan bo‘lsa, o‘zbek tilida mazkur munosabatlar nisbatan ixcham shaklda namoyon bo‘ladi. Bu esa har ikki tilning dunyoni konseptuallashtirishidagi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi [4;5-b.].

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz tillarida graduonimik qatorlarning semantik jihatdan tizimli va rang-barang xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, vaqt, yo‘nalish, chastotalik hamda intensivlik ma'nolarining darajalanishi har ikki tilda o‘ziga xos semantik vositalar orqali ifodalanadi.

Shuningdek, tahlillar o‘zbek tilidagi ayrim graduonimik qatorlarning strukturaviy jihatdan ixcham, ingliz tilidagi qatorlarning esa nisbatan murakkab semantik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur holat tillarning olamni konseptuallashtirishidagi milliy va kognitiv xususiyatlari bilan izohlanadi.

Umuman olganda, graduonimik qatorlarning qiyosiy-semantik tahlili ularning universal hamda milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Kelgusida mazkur hodisani korpus lingvistikasi va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tadqiq etish ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. Toshkent, “Fan”, 1995.

(2). Djumabaeva J. Graduonymy as a Semantic Phenomenon in Uzbek Linguistics. Arts and Social Sciences Journal, 2016, vol. 7, № 4.

(3). Lyons J. Language and Linguistics. An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

(4). Cruse D.A. Meaning in Language. An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 2004.

(5). Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago, The University of Chicago Press, 1987.

(6). Norkuziyeva N. O‘zbek tilida payt ravishlarining semantik xususiyatlari. Toshkent, 2022.

(7). O‘rinboyeva M., Xo‘jamqulov Sh. O‘zbek folklori tilidagi payt ravishlarining semantik tadqiqi. – Toshkent, 2021.

(8). Sayidazimova D. Ingliz tilida chastotalik ma’nolarining graduonimik ifodasi. Filologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2023.

**Kushmanov Jasur Baxodirovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), prof. v.b.; email: jasur.k@urdu.uz; ORCID: https://orcid.org/0009-0007-9833-1623)**

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING GENDER ASSIMETRIYASI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarning qiyosiy-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida erkak va ayol obrazini ifodalovchi frazeologizmlarning baholash komponenti, konnotativ ma'nosi hamda pragmatik vazifalari qiyosiy aspektda o‘rganildi. Tahlillar natijasida har ikki til frazeologik fondida gender assimetriyasi mavjudligi, erkak obrazining asosan ijobiy semantik maydonda, ayol obrazining esa ko‘proq salbiy yoki stereotipik baholash asosida shakllanganligi aniqlandi. Shuningdek, gender stereotiplarining milliy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi hamda ularning frazeologik birliklar orqali avloddan avlodga uzatilishi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, gender lingvistikasi, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:*** *frazeologiya, gender lingvistikasi, gender assimetriyasi, frazeologik birlik, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik tahlil, pragmatika, stereotip, o‘zbek tili, ingliz tili.*

## ГЕНДЕРНАЯ АСИММЕТРИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

***Аннотация.*** *В статье проводится сравнительно-семантический и лингвокультурологический анализ гендерно маркированных фразеологических единиц узбекского и английского языков. Исследуются оценочный компонент, коннотативное значение и прагматические особенности фразеологизмов, характеризующих мужчину и женщину. Анализ показал, что в обоих языках наблюдается гендерная асимметрия: мужской образ преимущественно связан с положительными качествами, такими как сила, смелость и лидерство, тогда как женский образ чаще характеризуется через красоту, эмоциональность и традиционные социальные роли. Полученные результаты имеют теоретическое и практическое значение для сравнительного языкознания, гендерной лингвистики, лингвокультурологии и переводоведения.*

***Ключевые слова:*** *фразеология, гендерная лингвистика, гендерная асимметрия, фразеологическая единица, лингвокультурология, сравнительное языкознание, семантика, прагматика.*

## GENDER ASYMMETRY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN UZBEK AND ENGLISH

***Annotation.*** *This article presents a comparative semantic and linguacultural analysis of gender-related phraseological units in Uzbek and English. The study examines the evaluative component, connotative meaning, and pragmatic functions of phraseological units representing male and female images. The findings reveal that gender asymmetry is reflected in the phraseological systems of both languages: male images are predominantly associated with positive semantic characteristics such as strength, courage, and leadership, whereas female images are more frequently represented through beauty, emotionality, and stereotypical social roles. The research also demonstrates that phraseological units preserve and transmit national-cultural perceptions of gender across generations. The results contribute to comparative linguistics, gender linguistics, phraseology, translation studies, and linguocultural research.*